

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning xotirasini abadiylashtirish farmoniga muvofiq 3-talabalar turar joyida 2020 -yil 30-yanvar kuni birinchi prezidentimiz Islom Karimovning 82 yillik tavalludiga bag'ishlab "Xotirangiz mangu qalbimizda yashaydi" nomli tadbir o'tkazildi. Tadbirda institutimizni gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchilari qatnashdilar. Professor Xojakbar Hamidov Xudoyberdiyeva Gulnora va boshqa o'qituvchilar tadbirni mazmunli o'tkazib berdilar. Tadbirda Islom Karimovning hayoti, faoliyati to'g'risida qisqa metrajli film namoyish etildi. 3-talabalar turar joyidagi 70 dan ortiq talabalar filmni yaxshi qiziqish bilan ko'rdilar.



